

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**


**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	335
M.A.Kuchkarova	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения	338
Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari	342
K.Sh.Nishonova	
Boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lim va uning turlari.....	347
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari	350
I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasi	354
M.M.Abdumannopov	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	358
T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari	362
N.A.Qodirova	
Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi” (Ingliz tilini o'qitish misolida).....	366
Z.N.Ortiqova	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari	370
M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva	
Ta'limda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rmi	377
I.Kirgizov	
“Ey sabo” – komil insonga aksiologik yondashuv.....	381
A.T.Karimov	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari	386
A.M.Nurmuxammadjonov	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati.....	390
M.M.Najmetdinova	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	396
M.Kurbanova	
Dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari.....	400
X.M.Shermatova	
Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	403
T.N.Shokirov	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi	407
B.M.Qurbonova	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar	410
L.Sh.Shukurova	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlar va uning ilmiy tahlili.....	415
A.A.A'zamjonov	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rmi	419
A.A.Abdisattorov	
Musiqqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari	422
I.D.Rustamov	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rmi (Doira cholg'usi misolida).....	428
A.A.Ergashev	
Vokal-xor ta'limida finale-2003 dasturining qo'llanishi.....	432
A.A.Mamurov	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari	438



UO'K: 372/7.094

OMMAVIY-MADANIY TADBIRLAR TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI**СОДЕРЖАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-КУЛЬТУРНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ СУЩНОСТЬ И ПОНЯТИЙНАЯ ОСНОВА****CONTENTS OF PUBLIC-CULTURAL EVENTS ESSENCE AND CONCEPTUAL BASIS****Najmetdinova Mavluda Mamasodiqovna** 

Farg'ona davlat universiteti musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari hamda ommaviy-madaniy tadbirlarning rivojlanish bosqichlari va uning ilmiy-nazariy asoslari falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Ommaviy-madaniy tadbirlar yoshlarni ma'naviy-axloqiy, milliy-ma'naviy ruhda tarbiyalashi, madaniy tadbirlarni o'ziga xos xususiyatlari, ular ongida badiiy tafakkurni rivojlantirish orqali faoliyatimizda yuqori samaradorlikka erishish maqsadi yoritiladi.

Аннотация

В данной статье философски анализируются сущность и концептуальные основы понятия массового культурного мероприятия, а также этапы развития массового культурного мероприятия и его научно-теоретические основы. Массовые культурные мероприятия воспитывают молодежь в духовно-этическом, национально-духовном духе, будут освещены специфические особенности культурных мероприятий, цель достижения высокой эффективности в нашей деятельности через развитие художественного мышления в их сознании.

Abstract

This article philosophically analyzes the essence and conceptual foundations of the concept of a mass cultural event, as well as the stages of development of a mass cultural event and its scientific and theoretical foundations. Mass cultural events educate young people in a spiritual, ethical, national and spiritual spirit; the specific features of cultural events will be highlighted, the goal of achieving high efficiency in our activities through the development of artistic thinking in their minds.

Kalit so'zlar: Madaniyat, san'at, ommaviy-madaniy, fan, ta'lim, bayram, tafakkur, did, tantana, tomosha.**Ключевые слова:** Культура, искусство, общественно-культурное, наука, образование, праздник, мысль, вкус, церемония, зрелище.**Key words:** Culture, art, socio-cultural, science, education, holiday, thought, taste, ceremony, spectacle.**KIRISH**

Jahonning eng ilg'or mamlakatlari safidan munosib o'rin egallayotgan yangi O'zbekistonda tinch va farovon kelajak poydevorini mustahkamlash maqsadida jadal islohotlarni amalga oshirayotgan, yangilanish-yuksalishlar davom etayotgan yurtimizda insonga ehtirom, vatanparvarlik g'oyalari atrofida birlashishni taqazo etmoqda. Bu esa mazkur jarayonlarni yoshlar ongiga singdirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, siyosiy-huquqiy tafakkurini o'stirish, ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy dunyoqarashini yuksaltirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari bo'lgan ommaviy-madaniy tadbirlarni kengaytirish, takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur maqolada ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari hamda ommaviy-madaniy tadbirlarning rivojlanish bosqichlari va uning ilmiy-nazariy asoslari falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Bugungi kunda ommaviy-madaniy tadbirlarni shakllantiradigan asoslar, ya'ni uning mohiyati, xayotda tutgan o'rni, vazifalari, ularni tashkil qilish qonun-qoidalari haqidagi bilimlarning yetarli emasligi o'zkarilayotgan tadbirlarning umumiy saviyasiga ham ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ommaviy-madaniy tadbirlar, asosan davlat tadbirlarida, sanaviy bayramlarda, fuqarolarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun amalga oshiriladi. Bunday tadbirlar

PEDAGOGIKA

fuqarolarning xordiq chiqarishlariga, bilimni, dunyoqarashini o'sishiga, ijodkorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ular o'z navbatida ularga samarali yordam beradi.

Ommaviy-madaniy tadbirlar yoshlarni ma'naviy-axloqiy, milliy-ma'naviy ruhda tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Madaniy tadbirlarni o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olib o'tkazish orqali yoshlarni milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ular ongida badiiy tafakkurni rivojlantirish orqali faoliyatimizda yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

So'nggi yillarda fuqarolar hayoti va ularning dunyoqarashida tub burilishlar davri bo'ldi. Jamiyatimiz butunlay yangi qiyofa, yangicha mazmunni kasb etmoqda. Odamlarning turmush tarzlari o'zgarmoqda. "Endi hamma gap qo'lga kiritilgan yutuqlarni asrab-avaylashda, kun sayin uning mazmunini boyitib, ma'naviy jihatdan chuqurlashtirib borishda qolgan". Har bir inson ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy voqelikni chuqur idrok etishi, istiqbolni rejalashtirishning ilg'or yo'nalishlarini pishiq-puxta anglab olishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda ommaviy-madaniy tadbirlarning ma'naviy tarbiya tizimidagi o'rni va imkoniyatlari hamda ularning tarbiyaviy ahamiyatini F.E.Ahmedov, B.S.Sayfullaev, M.B.Umarov, J.Dushamov, V.Rustamov, B.A.Shodiev, U.X.Qoraboev kabi tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan. Shu bilan birga ularning tadqiqotlarida ommaviy-madaniy tadbirlarning jamiyat ma'naviy yangilanishidagi o'rni masalalarining ayrim jihatlari o'rganilgan.

Shuningdek, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini ommaviy-madaniy tadbirlar asosida yuksaltirishning ayrim ijtimoiy jihatlari ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar sarasiga kirgan ommaviy-madaniy tadbirlarga qiziqishini rivojlantirishning ijtimoiy asoslari S.Samadova, A.Nosirova, F.E.Ahmedov, U.Qoraboev, Sh.Sharipov, R.A.Qo'ldoshev, B.Bo'ronov, F.Asqar kabi olimlar tomonidan ilmiy-amaliy talqin etilgan.

Mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari olimlaridan G.Danilova, A.Irisov, O.Keningberger, O.Suxodolskaya-Kuleshova, T.Shirokograd kabi MDH va xorij tadqiqotchilar ilmiy ishlarida ma'naviy qadriyatlarning rivojlanish tendensiyalari, ommaviy-madaniy tadbirlarning yoshlar dunyoqarashini rivojlantirishdagi o'ziga xos jihatlari, san'at va badiiy qadriyatlarining ma'naviy tarbiyadagi imkoniyatlari tadqiq qilingan.

G'arb mamlakatlarida James R. Ozinga, Jakob Neusner, George Herbert Palmer, Robin Gill, Andrev Michael Flescher, Daniel L. Vortxen kabi olimlarning tadqiqotlarida ommaviy-madaniy tadbirlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri masalalarining nazariy asoslari o'rganilgan.

Qayd etilgan tadqiqot ishlarida yoshlarning badiiy tafakkurini rivojlantirishning ba'zi masalalari yoritilgan bo'lib, ommaviy-madaniy tadbirlar kontekstida yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish masalasi alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmaganligi uchun ham mazkur ishga qo'l urdik.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Madaniyat, san'at, fan va ta'lim sohalarini rivojlantirish uni yangi dunyoqarash nuqtai nazaridan taraqqiy toptirish mazkur sohalarida ham chuqur islohotlarni amalga oshirish davlatimiz va jamiyatimiz istiqbolining ustivor yo'nalishlaridan biridir. Albatta, bunday zamonaviy tushunchalar, yangi uslublar, kashfiyotlar nechog'lik ahamiyatli bo'lsa ajdodlarimizning bu sohalaridagi ma'naviy ijodiy merosning ahamiyati ham undan kam emas.

Dunyoning ayrim hududlarida taraqqiyotlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va tumush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin. "Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilgani namoyon bo'lmoqda". Ana shunday salbiy holatlarni bartaraf etish, oldini olish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, mafkuraviy profilaktika ishlarining samaradorligini oshirish, milliy g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish masalalarida ommaviy-madaniy tadbirlarga ehtiyoj seziladi.

Ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishdan asosiy maqsad – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, o'sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo'lgan xurmatni uyg'otish va saqlash, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda faol ishtirok etishdir. Zotan, "Xalqlarning o'ziga xosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq

ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarining o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun ommaviy-madaniy tadbirlar ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Ommaviy-madaniy tadbirlarda yoshlar o'z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual xususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o'stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi. Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish va bu orqali yoshlarni tarbiyalash – hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ommaviy-madaniy tadbirlar atamasiga turdosh bo'lgan "ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar", "madaniy bayram tadbirlar", "badiiy-ommaviy tadbirlar", "ommaviy bayram tadbirlar", "badiiy tadbirlar" kabi tushunchalar ham mazmun-mohiyati ko'ra bir mazmunni ifodalaydi.

Ommaviy-madaniy tadbirlar milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar asosida vujudga kelgan bo'lib, har bir yoshni mehr-shavqatli, mehr-oqibatli bo'lishiga da'vat etadi, yer yuzida barqarorlik, birdamlik va ahillik tabiatini uyg'otadi, xalqlarning madaniyatlarini o'zaro birlashtiradi, boyitadi, insonlarning millati, tili va dinidan qat'iy nazar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi.

Ommaviy-madaniy tadbirlar shaxsning ijodiy imkoniyatlarini erkin namoyon qilishda sezilarli darajada muhim rol o'ynaydi. Mazkur bayramlar, o'zining umumiy tuzilishi va ijodiy o'zgaruvchanlik xususiyatiga asoslangan holda shaxsning ijodiy ma'naviy imkoniyatlarini jamuljam qilib to'plash imkoniyatini beradigan madaniy dam olish tadbirlaridir. Demak, mazkur tadbirlar yoshlarning ma'naviy yuksalishi uning ijtimoiy faolligini oshiradi va jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "tadbir" – biron ishni, maqsadni amalga oshirish, ro'yobga chiqarish vositasi – shuning uchun puxta o'ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar majmuidir, deyilgan. Madaniy tadbirlar to'g'risida shu soha olimlari turli fikr mulohazalarni aytib o'tganlar. Ular bu tushunchani badiiy ommaviy tadbirlar deb, yana boshqalar madaniy-ma'rifiy ishlar deb yuritganlar. Madaniy tadbirlar esa bu jarayonlarning barchasini o'zida qamrab oladigan ijodiy va tashkiliy jarayondir.

Ommaviy-madaniy tadbirlarni kengroq ma'noda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ommaviy bayramlar, konsert dasturlari, tematik kechalar, turli mavzudagi musiqiy, badiiy, publitsistik, xoreografik kompozitsiya va h.k.lar, bog'lar, maydonlarda o'tkaziladigan turli janrlardagi tadbirlar umumiy nom bilan madaniy tadbir tushunchasiga teng bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda ijodiy, uslubiy jihatdan mukammal, puxta tayyorlangan, to'g'ri tashkil etilgan dasturlar madaniy tadbir desak to'g'ri bo'ladi.

Ommaviy-madaniy tadbirlar deganda, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning madaniy saviyasini oshirish, bilimni o'stirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtini, dam olishini ko'ngilli o'tkazish, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi tadbirlar tushuniladi. Demak, ommaviy-madaniy tadbirlarni tarbiyaviy va madaniy ish sifatida barcha davlat muassasalari, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, ommaviy axborot vositalari, san'at muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini, jamoa xo'jaliklari, mudofaa tashkilotlari, sport, ekskursiya-turistik muassasalari, kurort, sog'liqni saqlash va dam olish tashkilotlari o'z ishining bir bo'lagi sifatida, ya'ni asosiy vazifadan tashqari holda uyushtirib, bu tadbirlar orkali mehnatkashlarning dam olishini, tarbiyaviy, madaniy-ma'rifiy ishni, havaskorlik ijodini tashkil qiladilar.

Ommaviy-madaniy tadbirlar shaxsning ijodiy imkoniyatlarini erkin namoyon qilishda sezilarli darajada muhim rol o'ynaydi. Mazkur bayramlar, o'zining umumiy tuzilishi va ijodiy o'zgaruvchanlik xususiyatiga asoslangan holda shaxsning ijodiy ma'naviy imkoniyatlarini jamuljam qilib to'plash imkoniyatini beradigan madaniy dam olish tadbirlaridir.

Ommaviy-madaniy bayram tadbirlari eng qadimgi davrdan boshlab inson xayotining eng muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ularsiz insoniyat xayotini mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramlar xalq xayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ko'zguvdir. Haqiqatan ham inson xayotini bayramlarsiz tasavvur qilish juda qiyin.

Ommaviy-madaniy bayram va tomoshalar boy tarixga ega bo'lib, uning ildizi qadimgi xalqlarning urf odatlariga, marosimlariga taqaladi. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining ham eng qadimgi davrlardan shakllana boshlagan asrlar bo'yi avloddan-avlodga o'tib kamol topib

PEDAGOGIKA

bebaho merosiga aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlar eng qadimiy davrlarda xalq ommasi ehtiyoji bilan shakllana borgan, ijtimoiy zarurat asosida rivoj topgan va boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan.

Ommaviy-madaniy bayram va tomoshalar paydo bo'lish jarayonlarini, turli yo'nalishlarining shakllanishini bilish juda ham zarur. Bu esa ommaviy-madaniy bayram va tomosha tadbirlari asosini amaliy o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi va bu janrning rivojlanish yo'lini, uning xilma xilligini va asosiy bosqichlarini o'z ichiga olgan nazariy ma'lumotlar orqali ommaviy-madaniy tadbirlarning rivojlanish bosqichlarini bilish mumkin. "Har bir xalqning madaniy-ma'naviy boyliklari xazinasiga xalq o'yinlari ham kiradi. Xalq o'yinlari vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'ra g'ayrioddiy hodisa emas, balki xalqning hayotini obrazli, muayyan tarzda aks ettiradigan va jamiyat taraqqiyotining qonunlari bilan belgilanadigan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatdir".

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkin: birinchidan, mamlakatda o'tkaziladigan ommaviy-madaniy tadbirlar shaxsning g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, xususan ma'naviy ongi va madaniyati ravnaqiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimi, millatning milliy g'ururi ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillar o'zgarishlariga mos ravishda amalga oshadi. Uchinchidan, ommaviy-madaniy tadbirlardafuqarolar tomonidan o'tmish ma'naviy badiiy merosni o'zlashtirish, millatning ma'naviy ma'naviy-intellektual salohiyatini oshirish, jamiyatning taraqqiyot imkoniyatlari, ijodkorning ijod erkinliklariga aksini topadi. To'rtinchidan, mamlakatda tashkil qilinadigan ommaviy-madaniy tadbirlarda mutafakkir olimlarning millat manfaatlarini yo'lida qilgan xizmatlari, shuningdek, millatning milliy g'ururini shakllantirishga yo'naltirilgan badiiy ijod merosining tarixi hozirgi davr ma'naviy taraqqiyotining asosi ekanligi ko'rsatib beriladi. Beshinchidan, ommaviy-madaniy tadbirlar tarixiy merosni ijodiy rivojlantirish, ularni zamonaviylashtirish ijodiy faoliyatlarning samaradorligini va istiqbol mo'ljallarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

1. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayoni ketayotgan hozirgi tarixiy sharoitda ommaviy-madaniy tadbirlarning samaradorligini yanada oshirish eng dolzarb masalalardan biridir.

2. Bugungi kunda ommaviy-madaniy tadbirlar ko'lamining kengayib borishi va ma'lum darajada murakkablashuvi undan turli soxalarning o'zaro alokasini, ilmiy asosda markazlashgan, rejali boshkaruvni talab etmoqda. Bu esa ommaviy-madaniy tadbirlarning ilmiy jihatlarini o'rganishni taqazo etmoqda.

3. O'zbekistonning qo'lga kiritgan eng katta boyliklaridan biri shuki, shaxs tafakkurida sifat o'zgarishlar yuzaga keldi. Bugungi yoshlarning ijtimoiy faolligi, siyosiy-huquqiy madaniyati, ma'naviy qiyofasi bilan mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlariga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shmoqdalar.

4. Ommaviy-madaniy tadbirlarning nazariy asoslarini ilmiy tahlil qilish madaniyat sohasida islohotlar o'tkazish, mamlakatning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi, jamiyatni rivojlantirishning maqsad va ahamiyatini anglashga xizmat qiluvchi madaniy muhitda intellektual va madaniy rivojlangan kadrlarni tayyorlash uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент: Маънавият. 2008. – Б. 12-13.
2. Носирова А. Жонли сўз санъати асослари. –Тошкент: Ўқув қўлланма. 2003. – Б. 182
3. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти. 2006. – Б. 724.
4. Самадова С. Маънавий-маърифий тadbirlar samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari: ўқув-услубий қўлланма // - Бухоро: "Sadriiddin Salim Buxoriy" Durдона nashriyoti. 2020. –Б. 9
5. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. –Toshkent: Aloqachi, 2008. – Б. 424;
6. Sayfullayev B.C. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – Б. 152;
7. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – Б. 303;
8. Душамов Ж. Оммaviy tadbirlar rejissurasi. –Тошкент: F.Фуллом, 2002. – Б. 144;
9. Рустамов В. Замонавий байрамлар режиссураси муаммолари. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2013. –Б. 192;
10. Рустамов В.К. Оммaviy байрамлар режиссураси. –Тошкент: ТДМИ босмахонаси, 2008. – Б. 189;
11. Шодиев Б.А. Театрлашган майдон тоmoshalari dramaturgiyasi va rejissurasi muammolari (1991-2005 йиллар):
12. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 240
13. Қамбаров А.А., Йўлдашев С. Имконияти чекланган ёшларни ижтимоий ва маънавий тарбиясида халқ уйинларининг ўрни. Методик қўлланма. – Фаргона: Фағона нашриёти, 2019. – Б. 6.